

INGLIZ TILI DARSLARIDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Yakubova Gulnoza Taxirdjanovna

Andijon mashinasozlik instituti. Assistent

Murotova Maftuna Akbarjon qizi. Bakalavriat

Andijon mashinasozlik instituti

Ingliz tili darsida yangi texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati.

Annotatsiya: Xozirgi jadallashib borayotgan zamonda ta'lim-tarbiyaning alohida o'ringa ega. Talabalar o'z tafakkurlarini va til bilish chegaralarini kengaytirib boradilar. Ular adabiyotlar, lug'atlar va kompyuter bilan ishlaydi. Loyiha ustida ishlash ijodiy jarayondir. Talaba mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida muammoni hal qilish bilan shug'ullanadi.

Kalit so'zlar: Ilm-fan, muloqot, malaka, xorijiy til, texnologiya, jarayon, adabiyotlar.

Til asosiy aloqa vositasidir, usiz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyomizda ijtimoiy munosabatlarda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir pallada axborot vositalari o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi, ular muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashish, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishni taqazo etadi.

Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'ni chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etadi. Oliy ta'limning ushbu bosqichida pedagogik jarayonning deyarli barcha qirralarini qamrab oladigan muhim o'zgarishlar mavjud. Ular ta'lim jarayoniga muayyan maqsadlar va vazifalarni qo'ydi.

Asosiy vazifalardan biri, bu zamonaviy o'qitish va ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish orqali o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishdir. Har qanday yangi texnologiyalarni qo'llash bilan o'qituvchining yangi pedagogik g'oyalari boshlanadi.

O'quv jarayonining eng muhim vazifasi – o'quvchining shaxsiy qiziqishi, rejalashtirilgan natijalarni olish uchun ta'lim jarayonida qaysi texnologiyalardan foydalanish kerakligini bilish kerak. Har qanday aniq ta'lim texnologiyasidan foydalanish qanchalik mukammal bo'lmasin o'quvchilarning malakalarini aniqlash va rivojlantirish uchun samarali shart – sharoitlarni yaratmaydi. Pedagogik texnologiyasi o'quv jarayonni loyihalashtirish, tashkil etish va o'tkazish uchun o'qituvchilar va talabalar uchun qulay muhit bilan birgalikda o'quv – pedagogik faoliyatining yaxshi o'ylangan modeliga aytiladi.

O'qitish va o'rganish tizimini kengaytirish va yangi usullaridan foydalanish nuqtai nazaridan yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning hali ham mavjud.

Pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish bizga ko'proq moslashuvchanlik va kam harajat bilan ta'lim olish uchun kurslarni tanlash, oliy ta'lim tomonidan taqdim etilgan tegishlimutaxassisliklar mazmunini o'rganish imkonini beradi.

O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun sharoit yaratish.

Talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda quyidagi metod va usullarni taqdim qilish mumkin. Hamkorlikda o'qitish, loyiha usullari, yangi axborot texnologiyalari, internet resurslardan foydalanish, masofaviy o'qitish kabi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarshaxsiy yo'naltirilgan, differentsiyalashgan ta'lim yondashuvini amalga oshirishga va ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Yana bir zamonaviy usullardan biri loyiha metodi hisoblanadi. Loyiha metodi shaxsga yo'nalgan ta'limni ta'minlaydigan texnologiyalardan biri – ijodiy qobiliyatlarni, kognitiv faollikni va mustaqillikni rivojlantirish uchun taklif qilinadigan shaxsga yo'naltirilgan, loyiha metodi talabalarning muloqot qobiliyatlari, muloqot madaniyati, fikrlarni qisqacha va osonlik bilan bayon etish qobiliyati aloqa bo'yicha hamkorlarning fikrlari bilan bo'lishishi, turli manbalardan ma'lumotlar olish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Ishning loyiha shakli talabalarga o'zlari to'plagan bilimlarni mavzu bo'yicha qo'llash imkonini beradigan eng dolzarb texnologiyalardan biridir. Talabalar o'z tafakkurlarini va til bilish chegaralarini kengaytirib boradilar. Ular adabiyotlar, lug'atlar va kompyuter bilan ishlaydi. Loyiha ustida ishlash ijodiy jarayondir. Talaba mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida muammoni hal qilish bilan shug'ullanadi, bu nafaqat tilni bilish emas, balki katta hajmdagi bilimlarni ijodiy, kommunikativ va intellectual ko'nikmalarga ega bo'lishni ham talab qiladi. Ingliz tili darsida yangi texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilarga ish unumdorligini oshirishga yordam beradi. Bunda talaba o'zi izlanib ko'proq bilimga ega bo'ladi. Bo'sh vaqtlarida axborot texnologiyalaridan foydalanib, ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Ko'pincha topshiriqlarni axborot texnologiyalaridan foydalanib o'rganishlari oson kechadi. Talabalarning hozirgi kunda yangi texnologiyalarga nisbatan qiziqishi juda kuchli bo'lganligi sababli, axborot texnologiyalaridan foydalanish davomida chet tilini juda yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Insonning o'zida ozgina qiziqish bo'lsa bu qiziqish tufayli izlanishga harakat qiladi va bu ko'pincha katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi axborot texnologiyalari davomida ingliz tili darsida yangi texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati juda kattadir. Inson doimo izlanib intilib

yashashi lozim. Shundagina juda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Bu esa har tomonlama mukammal inson bo'lib yetishishiga katta yordam beradi.

SHuningdek, ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish ilmfanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash zarurligiga va kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim to'g'risidagi qonunlarda aloxida yoritilgan.

Yetuk mutaxassis tayyorlashda hozirgi rivojlanayotgan texnologiya asrida keng qamrovli imkoniyatlar va turli xil usullar mavjud.

Demak ta'lim tizimini rivojlantirishda turli xil axborot vositalaridan, zamonaviy uskunarlar va jixozlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat etuk mutaxassis tayyorlashga, balki ilg'or texnologiya soxasida pedagog kadrlar malakasini bevosita ishlab chiqarishda mumtazam ravishda oshirilishiga olib keladi.

Respublikamizda xorijiy tillarga ayniqsa, ingliz tiliga bo'lgan talab va extiyojlarni hisobga olgan holda ingliz tilini ikkinchi til ya'ni xorijiy til sifatida o'rganayotgan davlatlarning metodikasidan xabardor bo'lish, yangininterfaol usullarni O'zbekistonda targ'ib qilish katta axamiyat kasib etadi. CHunki xorijiy davlatlar bu borada ancha yuqori pag'onalarni zabt etgan.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2]. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars

samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o’quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish [3]; – “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi; – “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o’quvchilarning og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi; – “Rolli o’yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo’llanilishi mumkin. Hunarga o’rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o’quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig’ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so’zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo’lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so’zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o’rgatishda, talaba, o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.H kushakov, Molodoy uchgeniy may 2020
2. Biotibbiyot Azimov A, Baxodirjonova
3. "Electronic education formation of the national system" T:OPI (scientific conference collection) June 15, 2011.
4. Sharipov.Sh.S and Vocational pedagogy "methodical manual" TDPU, 202007.